

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING UMUMIY DAROMADLARI

**2022- YILNING YANVAR-DEKABR
OYLARI BO‘YICHA
DASTLABKI MA‘LUMOTLAR**

Aholining umumiy daromadlari

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.



634,8
trln. so'm
aholining
umumiy
daromadlari

122,3%
aholining
umumiy
daromadlari
nominal o'sish
sur'ati

109,7%
aholining
umumiy
daromadlari real
o'sish sur'ati



Aholi umumiy daromadlarini hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanma asosida amalga oshiriladi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari **634,8** trln. so'mni tashkil etdi.

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi. Iste'mol narxlarning o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **109,7 %** ni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Moliya vazirligi, Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar

17,8
mln. so'm

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati

119,8%


Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'ati

107,5%

Ma'lumot uchun: Aholi umumiy daromadlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil 13-iyuldagi 25-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo'lib xizmat qiladi. <https://lib.stat.uz>


2022-yilning yanvar-dekabr oylarida (o'n ikki oy davomida), aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmida Toshkent shahrida (**37518,0** ming so'm) hamda Navoiy (**27420,4** ming so'm), Buxoro (**21382,0** ming so'm), Xorazm (**19643,5** ming so'm) va Toshkent (**18129,4** ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, 2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo‘yicha, ming so‘m



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida (o‘n ikki oy davomida), aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining eng quyi ko‘rsatkichlari Qoraqalpog‘iston Respublikasida (**13253,4** ming so‘m), Farg‘ona (**13607,9** ming so‘m) va Namangan (**13880,7** ming so‘m) viloyatlarida qayd etildi.

Aholining real umumiy daromadlari - aholining nominal umumiy daromadlarini tegishli davr uchun iste'mol narxlari indeksiga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.



2022-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi **107,5 %** ni tashkil etdi. Xuddi shu ko'rsatkich 2021-yilning yanvar-dekabr holatiga **110,7 %** ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari, 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga



Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Xorazm (**11,8 %**) viloyatida kuzatildi. Shu bilan birga Sirdaryo (**6,0 %**), Buxoro (**5,7 %**) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (**5,2 %**), Jizzax (**3,2 %**) va Toshkent (**0,1 %**) viloyatlari aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi. Navoiy viloyatida (**-0,9 %**) aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari pasayishi qayd etildi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibi

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo‘yicha)


	2021- y.	2022- y.
Umumiy daromadlar – jami	100,0%	100,0%
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	65,0%	61,6%
Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	6,7%	6,3%
Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,1%	2,3%
Transfertlardan olingan daromadlar	26,2%	29,8%

Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o‘shishi asosan umumiy daromadlar tarkibida **61,6 %** ulushga ega bo‘lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) va **29,8 %** ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

Ma‘lumot uchun: bu yerda va keyingi o‘rinlarda shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar bo‘yicha ma‘lumotlar qayta hisoblashlarni inobatga olgan holda keltirilgan. Mazkur qayta hisoblashlar “MHT – 2008” xalqaro standarti asosida o‘z uyida yashash bo‘yicha xizmatlar (shartli uy-joy rentasi)ni baholashning yangi metodologiyasi joriy etilishi bilan bog‘liqdir.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi

(2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, hududiy aholi umumiy daromadlariga nisbatan)



■ mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

■ shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlar

■ transfertlardan olingan daromadlar

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (**77,9 %**), Toshkent (**73,7 %**) va Jizzax (**73,5 %**) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Farg'ona, Namangan viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.


Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha)




Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilar va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi




2022-yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi **61,6 %** ni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati




Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan **115,9 %** ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **10,3 %** ga o'sishini ta'minladi.

Yollanma ishchilar daromadlarining o‘shish sur‘ati





Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o‘shish sur‘ati **121,4 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **6,0 %** ga o‘shishini ta‘minladi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi



Hududlar bo‘yicha yollanma ishchilar daromadlarining o‘shish sur‘ati (2022-yilning yanvar-dekabr holatiga, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o‘shish sur‘ati Toshkent sh. (**128,3 %**), Xorazm (**127,8 %**) va Sirdaryo (**125,7 %**) viloyatlarida qayd etildi.





O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati



Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati **111,5 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **4,2 %** ga o'sishini ta'minladi.


Aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar **33,3 %** ni tashkil qildi.


Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida, mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi

(2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha)




Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax (**51,1 %**), Buxoro (**42,3 %**) va Toshkent (**41,4 %**) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahrida va Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich o'rtacha respublika darajasidan past bo'lgan.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar 1 % ga o‘sganda aholining umumiy daromadlari hajmi o‘shishiga ta’siri



2022-yil yanvar-dekabr oylarida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o‘shishi umumiy daromadlar hajmining **0,33 %** ga o‘shishiga olib keldi.

Jami mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromatlarda hududlarning ulushi, 2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo‘yicha






O‘zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Toshkent (**10,6 %**), Samarqand (**10,3 %**) va Andijon (**9,6 %**) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Kamroq ulushga ega bo‘lgan hududlar Sirdaryo viloyati (**2,3 %**), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**3,7 %**), Navoiy viloyati (**4,9 %**) hamda Toshkent shahri (**5,1 %**) hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlarning aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o‘shish sur‘ati



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha, 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, mol-mulkdan olingan daromadlar **15,0** trln. so‘mni tashkil etdi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi **2,3 %** ni tashkil etdi.


Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining **0,8 %** ga o‘shishini ta‘minladi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo‘jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.


Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, **64,4 %** ni tashkil etdi. Toshkent (**7,4 %**) va Farg‘ona (**4,6 %**) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi



Mol-mulkdan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



2022-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati **136,5 %** ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Andijon viloyatida **243,2 %** va Toshkent shahrida **142,1 %** qayd etildi.


Transfertlardan olingan daromadlar

Transfertlar–uy xo‘jaliklariga boshqa uy xo‘jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo‘lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.

Aholi umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi




Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi




Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi **29,8 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, transfertlardan olingan daromadlarning **35,4 %** ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo‘lsa, **64,6 %** ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy transfertlar tarkibi



O‘sish sur‘ati




Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko‘p ulushni **71,8 %** tashkil qilgan bo‘lsa, nafaqalar **26,4 %** ni, stipendiyalar **1,8 %** ni tashkil etdi.

2021-yilning mos davri ma’lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o‘sish sur‘ati **122,4 %** ni, nafaqalarning o‘sish sur‘ati **172,5 %** ni va stipendiyalarning o‘sish sur‘ati **131,5 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida, jami **17,6** trln. so‘m miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan **35,2 %** i budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar va **64,8 %** i respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Hududlar bo‘yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida)



- Pensiya jamg‘armasi hisobidan
- Respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan

Boshqa joriy transfertlar, 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga

Boshqa joriy transfertlar hajmi chet eldan yuborilgan pul o‘tkazmalari tarkibidan jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish (biznes) faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog‘liq o‘tkazmalarini (Markaziy bank va uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuv ma‘lumotlari asosida) chiqarib tashlangan holda keltirilgan.

2022-yilning yanvar-dekabr oylari bo‘yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmining nominal o‘sish sur‘ati **142,4 %** ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,7 %** punktga ko‘tarildi. Ushbu daromadlarning o‘zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining **7,0 %** ga o‘sishini ta‘minlab berdi.

Hududlar bo‘yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmining ulushi

(2022-yilning yanvar-dekabr holatiga)



Aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar, 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga

2022-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi **56,9 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi



Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hududiy aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha, eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (**67,9 %**) kuzatildi. Eng kam ulush esa Toshkent shahrida (**47,3 %**), Navoiy (**49,8 %**) viloyatida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (**50,9 %**) qayd etildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Aholi birlamchi daromadlari ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarishdan olingan daromadlarga mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste‘mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar kiradi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromad yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo‘lgan aholining daromadidan tarkib topadi.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad – mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo‘jaligi a‘zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar.

Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo‘ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo‘jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.